

**NAMANGAN VILOYATIDA
MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI
FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK
KO'RSATKICHLARI**



Madaniyat bu - inson faoliyati va uning ahamiyatini belgilovchi ramziy vositalar va asarlar yig'indisidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiyada «madaniyat» atamasi mahsulot va ularning ishlab chiqarilishi, estetik qiymati va shu jarayonlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni bildiradi. Bu jihatdan madaniyat san'at, fan va manaviy tizimlarni o'z ichiga oladi.

Madaniyat - bu jamiyat, shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari tarixiy rivojlanishining ma'lum darajasi. U kishilar hayoti va faoliyatining turli jabhalarida, ular yaratayotgan moddiy va ma'naviy ne'matlarda namoyon bo'ladi.

San'at ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shaklidir. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida inson faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda paydo bo'la boshlagan.


San'at odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida jamiyat a'zolarini ma'lum bir ruhda tarbiyalash, ularning aqliy va hissiy rivojlanishi, shaxsning turli maqsadlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlari va ideallarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Estetik tafakkur tarixida san'at go'zallik qonuniyatlari asosida qandaydir tarzda narsa va hodisalarni aks ettirish va hayotni badiiy tarzda ifodalash g'oyasiga aylangan.

Teatr san'ati azaldan insoniyatning ma'naviy hayotida o'z o'rnini egallagan. Ming yillar avval qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy va Qadimgi Yunonistonda teatr dastlab bir, keyin ikki bosqichdan iborat bo'lib, shundan keyingina jamoaviy san'at turiga aylangan. Boshqacha aytganda, spektakl jamoaviy ijod mahsuli bo'lsa, rejissyor, dramaturg, aktyor, rassomning ijodiy izlanishlari samarasi bo'lsa, aktyorlarning bugungi ishi boshqacha. Demak, sahna san'atkorning muttasil ijodkorligini ko'rsatadi, aktyor zamonaviy san'atga uning ruhi, ijodiy kayfiyati bilan bog'liq nimadir qo'shadi yoki olib tashlaydi.


NAMANGAN VILOYATIDA MUZEYLAR

Viloyatimizda 2023- yilda jami muzeylar soni 2 tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni 1 taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, 83,5 ming kishidan iborat bo'lib, ulardan o'quvchi va talabalar ulushi 52,9 % ni tashkil etgan.

Muzeylar soni, birlik



Tashrif buyuruvchilar soni,
ming kishi




2023- yilda muzeylar
faoliyati



Bugungi kunda viloyatimiz muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar mavjud bo'lib, 2023- yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni 27,4 mingtani tashkil etgan. Muzey eksponatlarining 0,3 mingtasi rassomlik, 0,05 mingtasi grafika, 0,5 mingtasi amaliy san'at, 3,6 mingtasi numizmatika, 0,5 mingtasi arxeologiya buyumlari, 8,5 mingtasi suratlar, 9,9 mingtasi hujjatlar, 0,8 mingtasi maishiy va etnografik buyumlar va 3,3 mingtasi boshqa eksponatlardan iborat.


2023- yilda asosiy fond eksponatlari soni,
ming birlik




NAMANGAN VILOYATIDAGI TEATRLAR

2023- yilda viloyatimizdagi jami teatrlar soni 2 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan teatrlar 1 donaga ko'payganini ko'rsatadi. Unda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) esa, 261 tadan iborat. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 76,0 ming nafarni tashkil etgan.

Teatr soni
(birlik)




Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni
(ming kishi)



Teatrlar soni hududlar kesimida tahlil qilinganida, Namangan viloyati bo'yicha faqat Namangan shahri (2 ta teatr) ulushiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu teatrdagi ko'rsatilgan tomoshalar soni (261) tani va tashrif buyurgan tomoshabinlar soni (76,0 ming kishi),) dan iborat.

2023- yilda tomoshabinlar va spektakllar soni viloyatlar kesimida




tomoshabinlar, *ming kishi*

spektakllar, *birlik*

NAMANGAN VILOYATIDA KONSERT TASHKILOTLARI VA SIRK

Viloyatimizda 2023- yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 2 ta bo'lib. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 2023- yilda 198 tani tashkil etgan. Shuningdek, tinglovchilar soni jami 94,1 ming nafarga teng bo'lgan.

2023- yilda konsert tashkilotlari faoliyati



2023- yilda faoliyat turlari bo'yicha konsert tashkilotlari hamda o'tkazilgan konsertlar, birlik



NAMANGAN VILOYATIDA BOTANIKA VA HAYVONOT BOG'LARI

Namangan viloyatida jami 1 ta hayvonot bog'i mavjud bo'lib, ular o'z faoliyatini Namangan shahrida olib bormoqda. Shu bilan birga, viloyat hayvonot bog'iga 21,3 ming kishi tashrif buyurgan, shundan 20,2 ming nafari bolalardir.

Viloyatimiz hayvonot bog'idagi o'simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi o'ziga xosligi bilan tashrif buyuruvchilar e'tiborini tortadi. Bu yerda, xususan, hayvonot dunyosi 34 ta turi, o'simlik dunyosining 12 ta turi mavjud. Hayvonot dunyosi namunalari umumiy soni 34 ta nusxalarni tashkil etadi va 12 ta jami o'simlik dunyosi namunalari nusxalari.

2023- yilda hayvonot bog'larning faoliyati

Namangan hayvonot bog'i



**36 ta hayvonot dunyosi
namunalari, 12 o'simlik
dunyosi namunalari**

23,8 ming tashrif buyuruvchilar

Hayvonot bog'larning maydoni

Namangan viloyati

1 ga




2023- yilda hayvonot bog'larining hayvonot dunyosi



NAMANGAN VILOYATIDAMADANIYAT VA DAM OLISH ISTIROHAT BOG'LARI

2023- yilda viloyatimizda 5 ta madaniyat va istirohat bog'i mavjud edi. Shu bilan birga, ularning viloyat hududlari bo'yicha taqsimlanishi eng ko'p madaniyat va istirohat bog'lari Namangan shahrida (3) joylashganligini va Kosonsoy (1) hamda Chust (1 birlik) tulanlarida joylashganligini ko'rsatdi.

2023- yilda istirohat bog'lari
va attraksionlar soni, birlik



istirohat bog'lari
umumiy maydoni, ga

99,0

748,7

madaniyat va istirohat bog'lari

attraksionlar

qatnovlar, ming kishi

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Madaniyat — inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Madaniy meros bu — xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar va urf-odatlar, joylar, obyektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

Madaniy meros obyektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Moddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

Nomoddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

Diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.

Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Namangan viloyati Statistika
boshqarmasi



Manzil: 100170, Namangan sh.,
N/Namangoniy ko'chasi, 8-uy



tel.: +99869 227-84-94



e-mail: info@namstat.uz



www.namstat.uz



facebook.com/namstat.uz

